

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

Ro'yxatga olindi
№ AP-70230101-109
" 20 " 09 2024 yil



AMALIY XORIJIY TIL
FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 200000 – San'at va gumanitar soha

Ta'lim sohasi: 230000 – Tillar

Ta'lim yo'nalishi: 70230101 - Lingvistika: ingliz tili

Fan/modul kodi AXT11-208	O'quv yili 2024-2025	Semestr 1/2	ECTS - Kreditlar 8
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili nemis		Haftadagi dars soatlari 4
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1. Amaliy xorijiy til	120	120	240
2. I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad – o'rganilayotgan amaliy xorijiy til bo'yicha amaliy kommunikativ kompetensiyani shakllantirish, shuningdek magistrantlarning o'rganayotgan amaliy chet tillardan birida ravon va aniq so'zlashishlariga va hozirgi paytda dunyoda sodir bo'layotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy voqeelikka o'z munosabatlarini bildira olishlarini hamda mustaqil fikrlash, izlanish, bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat. Fanning vazifasi – magistrantlarga o'rganilayotgan amaliy chet tilidan ona tiliga yozma va og'zaki tarjima masalalari, leksik, grammatik va stilistik sathlaridagi o'xshash va tafovutli jihatlari, o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar berish, magistrantlarning matnini leksik, semantik va stilistik tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, ma'lumotni turli kontekstlarda tahlil qilish orqali uning ma'nosini qayta ifoda etish usullarini o'rgatish, turli vaziyatlarda o'rganilayotgan amaliy xorijiy tilda ravon muloqat qilishga o'rgatishdan iborat.			
II. Asosiy qism (amaliy mashg'ulotlar)			
II.1. Amaliy mashg'ulotlarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun quyidagi umumlashgan mavzular tavsifiya etiladi:			
1. Kelajakdagi mutaxassis kasbiy faoliyati.			
2. O'zi egallayotgan soha bo'yicha respublikamizda erishilgan yutuqlar, soha taraqqiyoti bo'yicha istiqbol rejalar.			
3. O'zi egallayotgan soha bo'yicha xorijiy mamlakatlarda erishilgan yutuqlar, soha taraqqiyoti bo'yicha istiqbol rejalar.			
4. Ekologiya va salomatlik			

O'rganilayotgan xorijiy tilning fonetika va grammatika qismlari bo'yicha quyidagi mavzular tavsifiya etiladi:

O'rganilayotgan tilning tovush tizimi urg'u, intonasiya, ritmik guruh, so'zlarning bog'lanishi va morfologik tuzilishi, so'z turkumlari: ot, sifat, son, fe'l, ravish, yordamchi so'zlar, artikllar, predloglar, ravishdosh, sifatdosh fe'llarning aktiv va passiv formalari, modal fe'llar, kon'yuktiv 1, kon'yuktiv 2, infinitiv va infinitiv konstruksiyalar modal so'zlar, modal yuklamalar, fe'l zamonlari, murakkab to'ldiruvchi, otlarning ko'plik formasi, sifatlarda rodnung ifodalanihi, gap bo'laklari va ularning umumiy tasnifi, zamonlarning moslashuvi ko'chirma va o'zlashtirma gap.

O'rganilayotgan xorijiy tilning sintaksis qismi bo'yicha quyidagi mavzular tavsifiya etiladi:

Gap, sodda gap, bir bo'lakli gaplar, ikki bo'lakli gaplar. Qo'shma gaplar. Aniqlovchi ergashgan, ega ergashgan, maqsad ergashgan, to'ldiruvchi ergashgan, hol ergashgan, ravish ergashgan, natija ergashgan, sabab ergashgan, shart ergashgan, to'siqsiz ergash gaplar, aktiv va passiv forma, passiv formaning alternativlari.

O'rganilayotgan xorijiy tilning leksika qismi bo'yicha quyidagi mavzular tavsifiya etiladi:

Mutaxassislikka oid termin va tushunchalar. Abbreviatura, akronim va toponimlar. Idiomalar, frazeologik birliklar. Ko'p ma'noli so'zlar, so'z birkimlari, erkin birkimlar, fe'lli turg'un birkimlar. O'zlashgan so'zlar. Klishe'lar. Lug'atlar va ularning tarkibi. Tillardagi realiyalar, muqobilisiz leksikalar.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar


Amaliy mashg'ulotlarda magistratura talabasi egallayotgan mutaxassisligi bo'yicha o'z davlati va tili o'rganilayotgan mamlakat ta'lim tizimi, uning yutuq va kamchiliklarini o'rganishi, tahlil qilishi, mutaxassislikka oid lingvistik atamalar bilan ishlashi, egallayotgan sohasi bo'yicha xorijiy tillardagi internet resurslaridan samarali foydalanishi nazarda tutiladi. Magistrantlar o'rganilayotgan chet tili bo'yicha bilim va ko'nikmalarini jonli muloqot, mashqlar bajarish, insho va bayonlar yozish, mashqlarni tarjima qilish orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar, audio va video materiallar asosida bilimlarini mustahkamlash, tarjima materiallaridan foydalanish, o'tilgan mavzular yuzasidan dialog qilish va shu kabilar orqali magistrantlar bilimni oshirish tavsifiya etiladi.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia vositalari bilan jibozlangan auditoriyada o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

<p>IV. Mustaqlil ta'lim va mustaqil ishlar</p> <p>Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan umumiy mavzular:</p> <p>Giyohvandlik va uning salbiy oqibatlari, terrorizm, jinoyat va jazo ekologiya, etnik nizolar, kasalliklar;</p> <p>Sog'liqni saqlash tizimi: Sog'lom turmush tarzi, sog'liqni saqlash, tibbiyotning Sharq va G'arbda rivojlanishi, an'anaviy va noan'aviy tibbiyot turlari;</p> <p>Ilmiy-texnik progress va uning insoniyatga bo'lgan ta'siri: bioinjeneriya, nanotexnologiya, zamonaviy axborot texnologiyalari, atrof-muhitning ifloslanishi, ishsizlik;</p> <p>Vatanparvarlik, madaniyat va ma'naviyat, diniy, milliy tolerantlik, zamonaviy axborot texnologiyalari.</p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan taqdimot ustida ishlash; berilgan mavzu bo'yicha qo'shimcha til materiali yig'ish, uni tahlil qila olish (Library research, Reading Log, Writing Assignment); so'z boyligini kengaytirish (Programme of Vocabulary Development); debatlar tayoorgarlik ko'rish; ilmiy posterlarni loyihalash va ularni himoya etishga tayoorgarlik ko'rish; portfoli tayoirlash; guruh muhokamasiga (Round Table) tayyorlanish; til vositalarining og'zaki va yozma nutqda qo'llanish imkoniyatlari bilan yanada kengroq tanishish; muayyan ko'rsatmalar bo'yicha berilgan topshiriqlarni yozma bajarish tavsiya etiladi.</p>	<p>3.</p> <p>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> — keng ko'lamli nutq yoki qator murakkab fikrlar bayonini; — ma'ruza, nutq, bayonot, tafsilotli yo'riqnomalar, ilmiy va ixtisosliktaqdimotlar, so'rov va fikrlarning mohiyatini; — e'lon va xabarlarini; — tanish va notanish kontekstdagi murakkab autentik nutqni; — o'rganilayotgan til egasi bo'lgan so'zlashuvchilarning suhbat yoki munozarasining aksariyat qismini; — radio, internet va televideniye dasturlari, intervyularning aksariyatqismini <i>tushuna olishi</i>; — o'rganilayotgan tilda so'zlashuvchilar bilan mulohaza qilish; — oldindan tayyorgarlik ko'rimagan jonli muhokama va munozara yuritishi; — o'z sohalariga oid intervyuda ishtirok eta olish; — bitimga kelishuv yoki muammo yechimini topishda rasmiylik va
--	--

<p>xushmuomalalikdan foydalanish;</p> <ul style="list-style-type: none"> — rasmiy muhokama doirasida o'z fikr va mulohazalarini aniq ifodalashi; — o'z hamkorlari bilan muzokara yuritishi; — ma'lum masala yuzasidan madaniy tartibga amal qilib ma'lumot so'rashi; — muhokamalarda o'z fikrlarini asoslash, o'zgartirib talqin eta olishi vatuzatishi; — rasmiy doiralarda (masalan, seminar va hokazolar) o'z sohasi bo'yichasavol-javobga kirishish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi</i>; — ma'lum mavzu bo'yicha taqdimot qilish; — o'z sohasi bo'yicha ma'lumotlarni aniq va batafsil bayon etish; — ma'lum mavzu bo'yicha og'zaki ma'ruza qilish; — maqola, ma'ruza yoki muhokama yuzasidan aniq umumlashgan xulosa qilish; — tanish mavzuga oid qarash yoki fikrni rivojlantirish, dalillar, misollar keltirish orqali <i>asoslay olishi</i>; — tanish va notanish mavzulardagi matnlarning asosiy/ayrim jihatlarni; — o'z sohalar va qiziqishlariga mos yozishmalarni; — jadval, grafiklarning qisqa izohini; — murakkab nomlarni; — maxsus va murakkab yozma yo'riqnomaga va yo'nalishlarni; — tezislari, ma'ruza matnlari, konferensiya dasturlari, mundarija va shukabi matnlarni; — kasbiy sohalariga oid maqola va ma'ruzalardan tegishli ma'lumotni <i>farqlash va tushunish matakalariga ega bo'lishi lozim</i>. 	<p>4.</p> <p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <p>Amaliy darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentasion va elektron-didaktik texnologiyalardan foydalaniladi. Jumladan,</p> <ul style="list-style-type: none"> • amaliy mashg'ulotlarida "Aqliy hujum", "Tarozi", "Bumerang", "Birgalikda o'qiyamiz", "Arra", • interfaol keys-stadilar; • mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar; • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
<p>5.</p> <p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Magistrant o'rganilayotgan amaliy xorijiy tili barcha kompetensiyalar bo'yicha erkin muloqot va kasbiy faoliyatda qo'llay olish darajada o'zlashtirishi lozim. Xorijiy tilda muloqotga kirisha olishi, o'z sohasiga oid munozaralarda ishtirok eta olishi, joriy, oraliq nazorat</p>	

<p>shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarishi, yakuniy nazoratni ijobiy bahoga topshirishi talab etiladi.</p>	<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Em neu Brückenkurs, Arbeits- und Kursbuch. – München: Max Hueber Verlag, Ismaning, 2010. – 128 s. 2. S.Saidov. Deutsche Grammatik in Übungen. – Toshkent, 2003. 3. S.A. Ziyayeva, S.D. Novikova, Die Übersetzung in die Muttersprache und ins Deutsche. T.; 2010. 4. Zavyalova V.M., Ilina L.V. Prakticheskiy kurs nemeskogo yazyska. M. Qo`shimcha adabiyotlar 1. Ilse Sander, Birgit Braun, Margir Doubek u.a. DaF kompakt A1-B1 Kursbuch mit 3 Audio –CDs. Ernst Klett Sprachen. Stuttgart, 2011. 2. Birgit Braun, Margir Doubek, Andrea Frater -Vogel u.a. DaF kompakt A1-B1 Übungsbuch mit 3 Audio –CDs. Ernst Klett Sprachen. Stuttgart, 2011. 3. Hartmut Aufderstraße, Heiko Bock, Jutta Müller, Helmut Müller. Themenaktuell. Deutsch als Fremdsprache. Max Hueber Verlag. München, 2007 4. Specht Franz, Niebisch Daniela, Pude Angela, - Schritte international Neu. Max Hueber Verlag, München, 2017. 5. Norbert Becker und Jörg Braunert. Alltag, Beruf & Co. Kursbuch+Arbeitsbuch mit Audio und CDs. Hueber Verlag, Ismaning, Deutschland 2009. 6. Nemischa-ruscha, ruscha-nemischa, nemischa-o`zbekcha lug`at (barcha nashrlari) 7. Tangram B1. Deutsch als Fremdsprache. – Ismaning, Deutschland. 2002. <p style="text-align: center;">Axborot manbalari</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. www.regma.de 2. www.krite.de 3. www.zum.de 4. www.lehrer-online.de 5. www.leixilotte.de 6. lexikon.freenet.de/Literaturdidaktik
--	--

<p>O`quv dasturi Termiz davlat universitetining O`quv-metodik Kengashining 2024-yil 30- 08 dagi 1-sonli bayonnomasi bilan ma`qullangan.</p>	<p>Fan/modul uchun mas`ul: U.Imomova – TerDu, Roman-german tillari kafedrası mudiri, Phd </p> <p>Taqrizchilar: Sh. A. Kenjaboyev – Samarqand davlat universiteti meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiya universiteti Toshkent filiali, Tillar kafedrası mudiri.</p>
---	---